




CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



AUEZOV
UNIVERSITY
1943

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

O'ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

O'SH DAVLAT UNIVERSITETI

M.O.AVEZOV NOMIDAGI
JANUBIY QOZOG'ISTON UNIVERSITETI

GEOGRAFIYA FANIDA TIZIMLI YONDASHUV:
NAZARIYA, EKSPERIMENT, AMALIYOT VA TA'LIM

XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI

2025-yil 16-17 iyun



Chirchiq-2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

O‘SH DAVLAT UNIVERSITETI

**M. O. AUEZOV NOMIDAGI
JANUBIY QOZOG‘ISTON UNIVERSITETI**



**GEOGRAFIYA FANIDA TIZIMLI YONDASHUV: NAZARIYA,
EKSPERIMENT, AMALIYOT VA TA‘LIM**

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

(Chirchiq sh., 2025 yil 16-17 iyun)



МАТЕРИАЛЫ

**международной научно-практической конференции
СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД В ГЕОГРАФИИ: ТЕОРИЯ,
ЭКСПЕРИМЕНТ, ПРАКТИКА И ОБРАЗОВАНИЕ**

(г. Чирчик, 16-17 июня 2025 года)

Chirchiq – 2025

SUG‘ORILADIGAN YERLAR IQTISODIY GEOGRAFIK TADQIQOTLARNING O‘RGANISH OBYEKTI SIFATIDA (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

Namozov J.A., Ibragimov L.Z.
(CHDPU, Chirchik, SamDU, Samarqand)

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo‘jaligi, xususan dehqonchilikning asosiy boyligi hisoblanadigan sug‘oriladigan yerlar haqida fikr bildirilgan. Mazkur yerlarni xo‘jalikdagi ahamiyati, roli, iqtisodiy geografik jihatdan tahlil qilingan, ijtimoiy xususiyatlari ochib berilgan. Samarqand viloyati misolida uning yuqorida qayd etilgan jihatlari batafsil ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘oriladigan yerlar, dehqonchilik, iqtisodiy geografik jihat, ijtimoiy geografik xususiyat, Samarqand viloyati.

Орошаемые земли как объект экономико-географического исследования (на примере Самаркандской области)

Аннотация: В статье излагается мнение об орошаемых землях, которые считаются основным богатством сельского хозяйства, в частности, дехканского. Раскрываются значение и роль этих земель в экономике, их экономико-географический анализ, а также их социальная характеристика. Вышеперечисленные аспекты подробно показаны на примере Самаркандской области.

Ключевые слова: орошаемые земли, дехканское хозяйство, экономико-географический аспект, социально-географическая характеристика, Самаркандская область.

Irrigated lands as objects of economic geographical research (on the example of Samarkand region)

Abstract: The article presents an opinion on irrigated lands, which are considered the main wealth of agriculture, in particular, farming. The importance and role of these lands in the economy, their economic and geographical analysis, and their social characteristics are revealed. The above-mentioned aspects are shown in detail on the example of the Samarkand region.

Keywords: irrigated lands, farming, economic and geographical aspects, social and geographical characteristics, Samarkand region.

Sug‘oriladigan yerlar insoniyat taraqqiyotining eng qadimiy davrlaridan boshlab agrar faoliyat uchun eng muhim tabiiy resurslardan biri hisoblanadi. Ular suv resurslarining oqilona boshqarilishi orqali dehqonchilikni yuqori darajada yuritishga imkon yaratadi. Shu sababli sug‘oriladigan yerlar nafaqat tabiiy resurs sifatida, balki murakkab iqtisodiy va ijtimoiy tizimning ajralmas qismi sifatida geografik tadqiqotlarda alohida o‘rganish obyekti aylangan.


Iqtisodiy geografiya nuqtai nazaridan sug‘oriladigan yerlar, avvalo, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy komponenti bo‘lib, ularning unumdorligi, joylashuvi, meliorativ holati va foydalanish samaradorligi iqtisodiy rivojlanish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Hududiy resurslardan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish, eksportbop mahsulot yetishtirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda sug‘oriladigan yerlar muhim omil hisoblanadi.

Ijtimoiy geografiya nuqtai-nazaridan esa sug‘oriladigan yerlar aholining ish bilan bandligi, yashash joylarining shakllanishi, migratsiya jarayonlari, infratuzilma rivoji kabi ko‘plab ijtimoiy jarayonlar bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, qishloq aholisi uchun sug‘oriladigan yerlar asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi. Shu sababli ularning holati nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ijtimoiy muvozanat uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Shuningdek, sug‘oriladigan yerlar ekologik omillar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ularning noto‘g‘ri boshqarilishi yoki melioratsiya tadbirlarining yetarli darajada olib borilmasligi natijasida sho‘rlanish, botqoqlanish, suv tanqisligi kabi salbiy jarayonlar yuzaga keladi. Bu esa o‘z navbatida yer resurslarining degradatsiyasiga va aholi turmush darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shu jihatdan sug‘oriladigan yerlarni o‘rganish iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning kesishgan nuqtasida joylashgan muhim ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Ular orqali hududiy rivojlanish, resurslardan foydalanish samaradorligi, demografik o‘zgarishlar va ekologik holat singari ko‘plab jarayonlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, agrar hududlar uchun bu masalaning chuqur o‘rganilishi amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, davlat siyosati, rejalashtirish va hududiy boshqaruvda asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining agrar sohada yetakchi hududlaridan biri bo‘lgan **Samarqand viloyati** qishloq xo‘jaligi uchun qulay tabiiy-iqlimiy sharoitlari, suv resurslari va sug‘oriladigan yerlar salohiyati bilan ajralib turadi. Viloyat hududida sug‘oriladigan yerlar asosiy ishlab chiqarish omili sifatida nafaqat iqtisodiy jarayonlar, balki aholining turmush tarzini belgilovchi asosiy resurs hisoblanadi. Shu sababli, sug‘oriladigan yerlar viloyat iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasida alohida o‘rganish obyektiga aylangan.



1 - rasm. Samarqand viloyati tumanlarining sug‘oriladigan yerlardagi ulushi

Manba: Diagramma Soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi 2024 yil ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.


Samarqand viloyatida sug‘oriladigan yerlar asosan paxta, g‘alla, sabzavot-poliz ekinlari, bog‘dorchilik va uzumchilik kabi yo‘nalishlarda foydalaniladi. Bulardan olingan mahsulotlar ichki bozorni ta‘minlash bilan birga, eksport imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Hududiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, viloyat tumanlari bo‘yicha sug‘oriladigan yerlarning taqsimlanishi, ularning meliorativ holati va hosildorligi turlicha bo‘lib, bu holat tumanlararo iqtisodiy tafovutlarni yuzaga keltiradi.

Masalan, **Past Darg‘om, Jomboy, Ishtixon, Bulung‘ur** kabi tumanlar sug‘oriladigan yerlar salohiyati bo‘yicha yetakchilardan hisoblanadi. Ushbu hududlarda yer resurslarining to‘g‘ri boshqarilishi orqali yuqori hosildorlikka erishilmoqda. Biroq ayrim tumanlarda, ayniqsa suv ta‘minoti zaifroq bo‘lgan joylarda yerlarning sho‘rlanishi yoki melioratsion muammolar mavjud bo‘lib, bu yer resurslaridan foydalanish samaradorligini pasaytiradi.

Ijtimoiy geografik jihatdan esa, sug‘oriladigan yerlar Samarqand viloyati aholisining bandligi, daromad manbai, yashash joylarining shakllanishi va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Aholining asosiy qismi qishloq joylarda yashaydi va

mehnat faoliyati dehqonchilik bilan bog‘liq. Demak, yerlar holatining yomonlashuvi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikka ham salbiy ta’sir qiladi.

Umuman olganda, mazkur tabiiy resurslar viloyat aholi jon boshiga hisoblaganda mamlakat ko‘rsatkichidan biroz farq qiladi (1-rasm). Sug‘oriladigan yerlar har bir kishiga o‘rtacha 0,10 gektardan to‘g‘ri kelib, bu borada respublika (0,14 ga) ko‘rsatkichidan orqaroqda turadi. Uning hududiy xususiyatlari ham o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lib, bunday holatning shakllanishiga ikkita asosiy omil ta’sir ko‘rsatadi. Bularga sug‘oriladigan yerlar maydonining katta-kichikligi va tumanlar aholi sonidagi farqlar kiradi.



2-rasm. Samarqand viloyati aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi sug‘oriladigan yerlar

Manba: Diagramma Soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi 2024 yil ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Asosiy jihat albatta sug‘oriladigan yerlar bilan ta’minlanganlik holatidir. Bu borada ikki asosiy “ustun” Pastdarg‘om va Payariq tumanlari yaqqol ajralib turadi. Mazkur hududlarda kishi hisobiga viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan 2 - 2,5 barobar ko‘p yer resurslari to‘g‘ri keladi. Indeks yuqori bo‘lgan qolgan deyarli barcha rayonlarda aholi soni kamligi sababli ijobiy holat kuzatiladi. Kattaqo‘rg‘on hamda Ishtixon tumanlari aholisi soni ko‘p bo‘lishi bilan birga, sug‘oriladigan yerlar maydoni ham kattaroq. Sharqiy tumanlarda esa yer resurslariga nisbatan aholi soni ancha ko‘p. Bu borada ham Nurobod va Qo‘shrabot tumanlari past ko‘rsatkichga ega bo‘lib, ularda aholi soni kamligi bilan birga, sug‘oriladigan yerlar maydoni ham ancha kichik.

Shuningdek, so‘nggi yillarda suv resurslaridan samarali foydalanish, tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish, yerlarni rekultivatsiya qilish kabi chora-tadbirlar mahalliy hokimiyat va fermer xo‘jaliklari tomonidan bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bu esa sug‘oriladigan yerlarning ekologik holatini yaxshilash bilan birga ularning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Umuman olganda, Samarqand viloyatida sug‘oriladigan yerlarning o‘rganilishi hududiy ixtisoslashuv, agrar ishlab chiqarish samaradorligi, aholining ijtimoiy ahvoli va ekologik barqarorlik masalalarini birgalikda tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanlari kesishmasida dolzarb va amaliy ahamiyatga ega ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Sug‘oriladigan yerlardan oqilona foydalanishni tashkil etish tabiiy-tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog‘liq bo‘lganligi muammoning yechimida geografik tahlilning alohida o‘rni borligini belgilaydi. Zamonaviy geografiya fanidagina tabiiy-ijtimoiy omillarni birgalikda o‘rganishga imkoniyat yaratilganligi sababli ham yerva suvdan oqilona foydalanishni hududiy tashkil etish kabi keng va ko‘p qirrali muammoning yechimida geografik yondashuvning ahamiyati

va o’rni beqiyosdir. Ushbu jarayon esa iqtisodiy va tabiiy geografiyaning birligida, hamkorligida va hamfikrligida yanada samarali bo’ladi. Zero tabiiy sharoit va tabiiy resurslar shakllanishi sof tabiiy jarayon bo’lsada, undan foydalanishda esa iqtisodiy geografik tushunchalar asosiy o’ringa ega. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning faqat "tabiiyligi" emas, ularning inson hayoti va xo’jalik faoliyati uchun zarurligi asosiy sanaladi. Boshqacha qilib aytganda, sug’oriladigan yerlar eng avvalo, inson uchun kerak. Shu bois, ushbu fanda tabiat komponentlariga iqtisodiy geografik baho berishda antropotsentrik yoki demotsentrik tamoyilga asoslanish talab etiladi. Sug’oriladigan yerlar resurslari miqdor jihatdan o’zgarib ham, uning sifatli, aholi ehtiyoji uchun zarur bo’lgan qismi o’zgarib turadi. Bundan tashqari ular hududlar miqyosida bir xil tarqalmagan, balki, notekis taqsimlangan. Ana shunga o’xshash muammolarni hal qilish, suv resurslarini hududlar bo’yicha oqilona taqsimlash iqtisodiy geografiyaning vazifalaridan biriga kiradi.

Iqtisodiy geografiya boshqa tabiiy resurslarning ham xo’jalikda foydalanish nuqtai-nazaridan hududlar bo’yicha oqilona taqsimlashni yo’lga qo’yish bilan shug’ullanadi. Bu jihat ushbu fanning asosiy yutug’i bo’lishi bilan birga, jiddiy kamchiligi hamdir. Chunki tabiiy resurslar, shu jumladan, sug’oriladigan yerlardan hududlardan tashqari tarmoqlarda ham turli xil maqsadlarda foydalaniladi. Bu borada uning eng yaqin hamkori, sohasi hamda raqobatdoshi mintaqaviy iqtisodiyot fanidir. Chunki ushbu fan tarmoqlar bo’yicha ham tadqiqot olib boradi, bundan tashqari uning asosiy maqsadi resurslarning foydalilik koeffitsiyentini o’rganishdan iborat. Demak mazkur fan iqtisodiy geografiyaga nisbatan amaliyotga ancha yaqinroq turadi. Biroq mintaqaviy iqtisodiyot asosan tarmoqlar bilan bog’langan. Iqtisodiyot tarmoqlarning tabiiy-xo’jalik xususiyatlari, tabiiy sharoit va tabiiy boyliklar, xususan, sug’oriladigan yerlar resurslarining hududiy jihatlarini o’rganishda, iqtisodiy geografiya fani asosiy rol o’ynaydi. Tabiiy sharoit va resurslarni shakllanishi, ularning zonal xususiyatlarini tabiiy geografiya aniqlab beradi. Demak, mintaqaviy iqtisodiyot iqtisodiy geografiyaga, iqtisodiy geografiya esa tabiiy geografiyaga bevosita bog’langan. Mazkur bog’lanishni ikki tomondan yana uzaytirish ham mumkin. Masalan, tabiiy geografiya geologiya va geomorfologiya, bular yana paleogeografiyaga, mintaqaviy iqtisodiyot esa makroiqtisodiyotga va hokazo. Biroq bu yerda asosiy maqsad tabiiy boyliklar, xususan, sug’oriladigan yerlar resurslarini tadqiq qilish uchun faqatgina mazkur tabiat unsurlarini xo’jalikdagi ahamiyatini o’rganish bilan shug’ullanadigan fanlar aloqasidan foydalanishdan iborat. Barcha tabiat komponentlari, shuningdek sug’oriladigan yerlar resurslari ham tabiatda, tabiiy holda shakllanadi hamda xo’jalik maqsadlarida ishlatiladi va bu jarayon uzluksiz davom etadi. Sug’oriladigan yerlar resurslaridan foydalanishda yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, uni hududiy tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Chunki shu yo’l bilan undan maqsadli, oqilona foydalanishni yo’lga qo’yish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizovich, N.J., Umirkulovic, S.A., Turakulovich, R.F. Pasture livestock effects on agricultural land in Samarkand region. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*. 25(2), 2021. c. 447-451 (<https://www.scopus.com/results/>).
2. Fayzullo R. Khamidov, Shavkat J. Imomov, Otabek S. Abdisamatov, Maqsud M. Sarimsaqov, Gulnora Kh. Ibragimova, Khurshida I. Kurbonova. Optimization of agricultural lands in land equipment projects. *Journal of Critical Reviews*. © 2020 by Advance Scientific Research. This is an open-access article under the CC BY license (<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>) DOI: <http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.11.184>.
3. Namozov, J. A. (2021). Economic and geographical aspects of rational use of land and water resources of Samarkand region. *Geog. Science. Fake Dr... Dis. Autoref*.
4. Namozov, J. A., Khamroeva, F. A., & Dovulov, N. L. (2021, September). Specific and integral efficiency use of land and water resources. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 839, No. 2, p. 022025). IOP Publishing.
5. Namozov, J.A., Djurayeva, L.V., Dovulov, N.L. Samarkand region land resources and the status of their use in the economy. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1112, No. 1, p. 012113). IOP Publishing.

6. Namozov J.A. Samarqand viloyati yer resurslarining hududiy tuzilishi // SamDU ilmiy axborotnomasi, № 3(91) Samarqand-2015. B. 144-147.

7. Raxmatullayev O.R. O’rta va Quyi Zarafshon voha geosistemalarida ekologik vaziyatni geografik optimallashtirish. Geogr. fan. dok. ... diss. – T. 2018. 120 b.

8. Qurbonov Sh.B., Fedorko V.N. O‘zbekiston geografiyasi (O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). – T.: Universitet, 2024.

9. O‘zbekiston Respublikasi yer fondi. – T.: Soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi ma’lumotlari (<https://ygk.uz>). – T., - 2024 y.

TRANSPORT - GEOGRAFIK RAYONLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Niyazov A.A.
(CHDPU, Chirchiq)

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada transport geografiyasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili amalga oshirilgan holda, hududni transport-geografik rayonlashtirish bilan bog‘liq o‘rganishlarga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Transport-geografik rayonlashtirishda foydalanish mumkin bo‘lgan metodologiyalar keltirilib, ularning yutuq va kamchiliklari qiyoslangan. Hududni transport – geografik holatini baholash uchun zarur bo‘lgan formulalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** transport-geografik rayonlashtirish, aviaklaster, tortishish zonalari, transport izoxronlari, iqtisodiy mikrorayonlar to‘ri.*

Научно-теоретические основы транспортно-географического районирования

***Аннотация:** В статье анализируются научные исследования по географии транспорта, особое внимание уделяется исследованиям, связанным с транспортно-географическим районированием территории. Представлены методики, которые могут быть использованы при транспортно-географическом районировании, сравниваются их преимущества и недостатки. Приведены формулы, необходимые для оценки транспортно-географического состояния территории.*

***Ключевые слова:** транспортно-географическое районирование, авиационный кластер, зоны тяготения, транспортные изохроны, сеть экономических микрорайонов.*

Scientific and theoretical foundations of transport-geographical zoning

***Abstract:** In this article, an analysis of research works on transport geography is carried out, and special attention is paid to studies related to the transport-geographical zoning of the territory. Methodologies that can be used in transport-geographical regionalization are presented, and their achievements and shortcomings are compared. The formulas necessary for assessing the transport-geographical position of the territory are given.*

***Keywords:** transport-geographical zoning, air cluster, gravity zones, transport isochrones, network of economic micro districts.*

Hududni rayonlashtirish masalasiga oid ilmiy tadqiqotlarning katta qismi asosan hududni iqtisodiy rayonlashtirish masalasiga, uning ahamiyati hamda amaliy jihatlariga bag‘ishlanganki, nazdimizda hududlarning jinoyatchilik geografiyasi, kasalliklar geografiyasi, xulq-atvor geografiyasi, ta’lim geografiyasi yo‘nalishlari kabi transport geografiyasiga doir o‘rganishlar ham yetarli emas. Zero, hozirgi barcha sohalardagi globallashuv, yo‘lovchi va yuklarni turli masofa va yo‘nalishlarga harakati tezlashib ketayotgan, o‘ziga xos “transport ekspansiyasi” sodir bo‘layotgan davrda transportni geografik nuqtai nazardan chuqur o‘rganish, uning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatib bergan holda mamlakatni transport-geografik rayonlarga ajratish muhimdir.

Transport-geografik rayonlashtirishga oid olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilganimizda I.I.Belousov iqtisodiy rayonlashtirishda transportning rolini[5], A.Vrubel xizmat ko‘rsatish rayonlarini aniqlash usuli sifatida yo‘lovchi harakatini[6], J.Gurskiy Chexoslovakiyaning transport-geografik rayonlarga ajratish amaliyotini, transport-geografik chegaralashtirish

geografik jihatlari	
Jumayev T.J., Qurbonov Sh.B., Ro‘zmatov B.Z., Turayev Q.T. O‘zbekiston tog‘ zonasi-ning ekoturistik salohiyati va ulardan oqilona foydalanish masalalari	103
Jumayev X.X., Turayev T.A. Qashqadaryo viloyatining tabiiy-geografik turistik va rekreatsion salohiyati	106
Jumaxanov Sh.Z., Mirzaahmedov X.S., Olimjanova N.A. Farg‘ona iqtisodiy rayoni investitsion salohiyatining iqtisodiy geografik tahlili	110
Do‘smenov F.A. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari	118
Mirzayeva A.Z. Jizzax viloyati turistik obyektlarining afzalliklari	123
Namozov J.A., Ibragimov L.Z. Sug‘oriladigan yerlar iqtisodiy geografik tadqiqotlarning o‘rganish obyekti sifatida (Samarqand viloyati misolida)	126
Niyazov A.A. Transport – geografik rayonlashtirishning ilmiy-nazariy asoslari	130
Payzullayev M.A. Aglomeratsiyalarning shakllanishiga tizimli yondashuv	135
Ражабов Ф.Т. Дарё ҳавзаси кишлоқ хўжалиги тармоқларининг ҳудудий табақаланишини тадқиқ қилишнинг методологик асослари	138
Селищев Е.Н. Стратегические системные приоритеты и ограничения социально-экономической модернизации территории Ярославского региона России	143
Djalilova Sh.Z. Sirdaryo viloyatining turistik salohiyati va uning istiqbollari	147
Umurzoqov Sh.D. O‘zbekiston suv havzalarida baliqchilik xo‘jaligi yuritishning geografik jihatlari	150
Xursanov S.M., Ergasheva O.H. O‘zbekiston aholisining tashqi migratsiyaga ta’sir etuvchi omillar	154
Yusupov X.B. Namangan viloyatidagi urbanizatsiya jaryonlarini rivojlanish omillari	158
Qurbonov P.R. Janubiy O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining demografik muammolari	162
Djurayeva L.V. Toshkent viloyatida rekreatsion xizmatlarning rivojlanishi	165
Qo‘chqarov O. A., Komilova U.S., Umarova U.Z. Shaharlar ekologiyasini inson salomatligiga tasiri (Farg‘ona, Qo‘qon shaharlari misolida)	169
IV SHO‘BA. KARTOGRAFIYADA TIZIMLI YONDASHUV VA GAT	173
Mamatova G.M., Bekanov K.K. Toshkent viloyati demografik web kartalarini yaratish masalalari	173
Tursunboyev R.M., Ibraimova A.A. Google earth engine (gee) dasturi asosida Toshkent viloyati Zangiota tumani tuproq xaritalarini yaratish	178
Hayitova F. Kartografiyada tizimli yondashuv va GIS	182
Эгамбердиев А., Уврайимов С.Т. Абу Райхон Беруний – ер ҳақидаги фанлар тараққиётига катта ҳисса қўшган энциклопедист олим	187
V SHO‘BA. GIDROMETEOROLOGIYA, GIDROLOGIYA VA SUV RESURSLARIDAN HAVZAVIY FOYDALANISH MUAMMOLARI	191
Хикматов Ф.Х. Проблемы изменения климата и их освещение в учебной литературе вузов Узбекистана	191
Muxammadiyev S.Z. G‘allaorol tumani iqlim ko‘rsatkichlarining yillar kesimida o‘zgarib borishi	196
Namozov J.A., Kamolova S.A. Amu-Buxoro sug‘orish mashina kanalining tarixiy-geografik tahlil	200
VI SHOBA. TABIATNI MUHOFAZA QILISH VA TABIIY RESURLARDAN TIZIMLI FOYDALANISH	204
Абдуев М.А. Оценка современного экологического состояния Ханбуланчайского водохранилища по гидрохимическим показателям	204
Akramov A. A., Jobborov B.T. Industrial wastes influence on soil productivity	210